

SHARQ JADIDCHILIK NAMOYONDALARINING DIDAKTIK QARASHLARI

Iroda Omadjonova
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkiston tarixida yangi sahifani ochgan ijtimoiy harakat ma’rifatparvarlik, millatparvarlik, taraqqiyatparvarlik, vatanparvarlik kabi g‘oyalar o‘z oldiga maqsad qilgan jadidchilik harakati namoyondalarining tarbiyaviy qarashlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: jadid, jadidchilik, ma’rifat, ta’lim-tarbiya, millatparvarlik, taraqqiyatparvarlik, vatanparvarlik, g’oya

DIDACTIC APPROACHES OF EASTERN ATTITUDES

Iroda Omadjonova
Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: This article provides information about the educational views of the representatives of the modernist movement, which opened a new page in the history of Turkestan, and whose goals were enlightenment, nationalism, progressivism, and patriotism.

Keywords: modernism, modernism, enlightenment, education, nationalism, progressivism, patriotism, idea

Turkistonda yangi g‘oya atrofida birlashish natijasida jadidchilik milliy-ozodlik kurashi vujudga keldi. Turkiston tarixida yangi sahifani ochgan ijtimoiy harakat ma’rifatparvarlik, millatparvarlik, taraqqiyatparvarlik, vatanparvarlik kabi g‘oyalar o‘z oldiga maqsad qildi.

Jadidchilik - yangilanish, yangi usul ma’nosini anglatib, «Usuli qadim»ni inkor etib, millatni o‘z davrining zamonaviy taraqqiyotiga undovchi g‘oyalarni ilgari surdilar. Jadidchilik g‘oyalarini ilgari surgan Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy-Ajziy, Saidrasul Aziziy, Muhammadsharif So‘fizoda, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat kabi yetuk millatparvarlar mustabit tuzum va bosimiga qaramy millatning ma’rifatini, qadr-qimmatini yuksaltirishga qattiq bel bog‘laganlar.

Ma’lumki, XIX asr madrasalarida musulmon huquqlari, arab tili grammatikasi, diniy falsafa, mantiq ilmlari o‘qitilgan. Madrasani tamomlagach qozinxonada ishslash

yoki imomlik qilish mumkin bo‘lgan. Madrasalarda asosan o‘g‘il bolalar o‘zbek, forstojik hamda arab tillarida o‘qitilgan.

Madrasa ta’limi asosan 5 toifaga bo‘lib olib borilgan:

1. Boshlang‘ich diniy mактаб.
2. Qorixona.
3. Daloilxona
4. Maktab internat
5. Madrasa

Boshlang‘ich diniy maktablarida 20-30 nafar o‘quvchilarga, qishloq maktablarida 10-15 nafar yaqin o‘quvchilar ta’lim olishgan. O‘quvchilar 6 yoshdan boshlab maktabga qabul qilingan bo‘lib, Alifbe, Xaftiyak, Chor kitob, Sufi Olloyor, Qur'on kabi kitoblar o‘rgatilgan.

Maktab internat - o‘rta madrasa bo‘lib, bularda diniy va dunyoviy fanlar o‘qitilgan hamda mazkur makatab-internatni ta’momlagan o‘quvchilarga o‘rta ma'lumot berilgan.

Jadidlar o‘rta asr o‘qitish usuli, shuningdek Yevropa ta’lim tizimi hamda chor Rossiya targ‘ib etayotgan sotsializm va demokratizm g‘oyalariga asoslangan ta’limga qarshi chiqib, yangi usulda o‘qitish bilan dunyoviy fanlarni o‘quv jarayoniga kiritish uchun say’-harakatlar olib bordilar. Ular ilm-fan, texnika, teatr, musiqa va matbuotni yuksaltirishga harakat qildilar.

XX asr boshlarining 10 - 15 yilda Turkistonda yangi "Usuli jadid" maktablari tashkil etildi. Bundan tashqari mahalliy matbuot hamda teatrlar ham. Kambag‘ol oila farzandlarini o‘qishlari uchun hamriya jamg‘armalari turli uyushmalar, harakatlar shakllandi. Dastlabki jonkuyar va ma’rifatparvarlardan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho‘lpon, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev kabi taniqli kishilarning olib borgan faoliyati katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Jadidchilikning asoschisi qrim-tatar ma’rifatparvari. U «usuli savtiya»ni boshlab berdi. Barcha turkiy xalqlarni yagona millat deb bildi, millatning ravnaqi uchun kurashdi.

1884-yili 12 bolani «Usuli jadid»da o‘qita boshlaydi. Bolalar 40 kunda savod chiqarishadi. Imtihon o‘tkazadi. Ular uchun «Xujai siben», «Bolalar muallimi» birinchi darsligini tuzadi.

Yangi usul maktablarda quyidagilarga e’tibor qaratilgan edi:

- sinfda bolalar 30 dan oshmasligi;
- 2 marta yoz va qishda bolalarni maktabga qabul qilish;
- 1 muallimda 3-4 sinf bo’lishi;
- dars 5 soatdan oshmasligi, har darsdan so‘ng 10 daqiqa tanaffus;
- juma va bayram kunlari dam olinishi, yozda ta’til bo‘lishi;

- dars zerikarli bo‘lmasligi, bolalarni urish, so‘kish mumkin emas.

I.Gaspirali usuli jadid bilan o‘qitishning qoidalarini shunday tushuntiradi:

a) Butun alifboni birdan o‘rgatish og‘irdir, boshda 3, 5 harf o‘rgatib borish yengil.

b) ...birinchi darsdan bolalar yozishni boshlamasliklari lozim.

v) Darslar muayyan soatlarga, qismlarga ajratilib o‘rgatilishi lozim.

g) Bir harfni o‘zlashtirmay turib, ikkinchisiga o‘tmaslik kerak.

d) Harflar bilan tanishtirilganda ular haqida kengroq ma'lumot berish lozim.

Uning ta'sirida ko‘plab jadid ma'rиватпарварлари yetishib chiqdi.

Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ma'rifikatparvarlardan biri. Furqatning «Ilm xosiyati», «Gimnaziya», «Teatr haqida majmua», «Vistavka xususida» kabi she’rlari orqali yoshlar hayotida ta’lim-tarbiyani, ilm-ma'rifikatni nechog‘liq zarur ekanligini bildiradi:

“Jahon bastu kushodu ilm birla,

Nadur dilning murodi ilm birla.

Ko‘ngillarning sururi ilmdandir,

Ko‘rar ko‘zlarning nuri ilmdandir¹”.

Birgina to‘rt misralik she’rining o‘zida ham ilm-fanni o‘quvchi hayoti va faoliyati davomida nechog‘lik zarur ahamiyatga ega ekanligini, ko‘ngillarning sururi, ko‘zlarning nuri ekanligini tushuntirmoqda. U madaniyat, san'at, aql, ilmu-odob, kasbu-hunar va hamma-hammasini ilmdan deydi.

Jadidchilik harakati namoyondalari tomonidan bildirilgan qimmati mulohazalarga bir to‘xtalsak:

“Boshqalarni kamolga yetkazmoqchi bo‘lgan odam avvalo o‘z nafsi kamolga yetkazgan bo‘lishi kerak, bo‘lmasa tarbiyasi foyda bermaydi”²

Fitrat

Ilmning nihoyasi yo‘q.

Fitrat

“Har kishi ilm-la bo‘lsa oshno,

Izzatu davlatda bo‘lg‘ay doimo,

Ilmsiz odam zalilu xor o‘lur,

Ilmsizlardan hamma bezor o‘lur”³.

Munavvar Qori Abdurashidxonov

Tolibi ilm va tolibi mol to‘ymas xarisdur.

Mahmudxo‘ja Behbudiy

Mustaqillik yillarida ma'rifikatparvarlar nomi oqlanib tarixidagi asl o‘z o‘rniga tiklandi. Asarlari orqali ezilgan xalqning xurligini tiklashga, o‘zligini anglashga, buyuk

¹ 111 vatandosh allomalarimiz. Insoniy fazilatlar haqida hikmatli so‘zlar. «Yangi asr avlodni», 2017

² Hamidulla Boltaboev. Islomtasavvufi manbalari. «O‘yiush» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 2005

³ <https://docs.yandex.ru>. Munavvar qori Abdurashidxonov. ADIBUS-SONIY

ajdodlariga vorislik qila oladigan munosib avlodlar bo‘lib kamolga yetish bilan birga qudratli davlat tuzish hamda dunyo mamlakatlari bilan bo‘ylasha oladigan vatan barpo etishga chaqirgan alloma-ma’rifatparvarlarning ta’limotolari qayta tiklandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda bugungi yangilanayotgan O‘zbekistonimizning uchinchi renesansiga tamal toshi alloma va ma’rifatparvarlarning ilmiy merosi, ma’naviy-axloqiy konsepsiysi, axloqiy o‘gitlari asosida qo‘yilii hamda bugungi yoshlarimizni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda juda katta pedagogik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 111 vatandosh allomalarimiz. Insoniy fazilatlar haqida hikmatli so‘zlar. «Yangi asr avlodni», 2017
2. Hamidulla Boltaboev. Islomtasavvufi manbalari. «O‘yiush» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 2005
3. <https://docs.yandex.ru>. Munavvar qori Abdurashidxonov. ADIBUS-SONIY
4. Кадирова, С. М., & Кадирова, Д. М. (2020). ФОЛЬКЛОР И ЭТНОГРАФИЯ НА СЦЕНЕ УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА. ВВК 87, 602.
5. Кадирова, С. М. (2020). Современное состояние театрального искусства в Узбекистане. Проблемы современной науки и образования, (7 (152)), 82-84.
6. Кадирова, С. М. (2020). THE CURRENT STATE OF THEATRICAL ART IN UZBEKISTAN. Проблемы современной науки и образования, (7), 82-84.
7. Кадирова, С. М. (2020). ЎЗБЕК ТЕАТРИДА КУЛГИ САНЬЯТИ. Интернаука, (38-2), 27-28.
8. Кадирова, С. М. (2020). THE PROBLEMS OF EMBODYING ETHNOCULTURAL HERITAGE ON THE THEATER STAGE. In Colloquium-journal (No. 31-3, pp. 10-12). Голопристанський міськрайонний центр зайнятості= Голопристанский районный центр занятости.
9. Mukhsinovna, K. S. DEVELOPMENT TRENDS IN MODERN THEATRICAL ART OF UZBEKISTAN. European Journal of Humanities and, 17.
10. Кадирова, С. М. (2019). Узбекский театр военного периода. In Colloquium-journal (No. 26 (50), pp. 163-165). Голопристанський міськрайонний центр зайнятості.
11. F.Karomatli. O‘zbek xalqi cholq‘u musiqasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2004
12. KADIROVA, S. M., & KADIROVA, D. M. (2022). " GOLDEN WALL" OF THE NATIONAL THEATER OF UZBEKISTAN. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (1), 717-721.
13. Kadirova, S. M. (2021). СЦЕНИЧЕСКИЕ ПОИСКИ В УЗБЕКСКОМ TEATPE. Theoretical & Applied Science, (3), 177-181.

14. Кадирова, С. М. (2020, June). РЕПЕРТУАР УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА В ПЕРИОД ЗАРОЖДЕНИЯ. In The 10th International scientific and practical conference “Dynamics of the development of world science”(June 10-12, 2020) Perfect Publishing, Vancouver, Canada. 2020. 848 p. (p. 417).